

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT FARMASEVTIKA INSTITUTI**

**Qo'lyozma xuquqida**

**UDK.547.944/945+972+664**

**Abdulaxadova Gulnora Sherli qizi**

**“Delphinium semibarbatum (sariq gulli isfarak)dan biofaol moddalarini ajratib olish texnologiyasi”**

**5A510602-Immunobiologik va mikrobiologik preparatlar texnologiyasi**

**Magistr**

**akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:**

**K.f.d.prof. B.T.Salimov**

**TOSHKENT -2016**

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Sog'liqni saqlash vazirligi**  
**Toshkent Farmasevtika instituti**

Fakultet: Sanoat farmatsiya  
:Abdulaxadova.G.Sh

Magistratura talabasi

Kafedra: Biotexnologiya

Ilmiy rahbar : Salimov.B.T

O'quv yili: 2014-2016

Mutaxasisligi:Immunobiologik va mikrobiologik preparatlar texnologiyasi

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI.**

**-Mavzuning dolzarbligi :** *Delphinium semibarbatum* o'simligi (isfarak, sarshop, shpornik, zalil)o'simligi xalq tabobatida og'riq qoldiruvchi ,antigelment vosita sifatida ishlatib kelingan . O'simlik alkaloidlari delsemin,delsemidin asosida kuraresimon ta'sirli dorivor preparat yaratilgan. Bu o'simlik gul barglaridan kvertsitin,izoramnetin flavonoidlar guruhiga mansub bo'yoq modda ajratib olingan bo'lib, jun ipak matolarini bo'yashda eng ommaviy va qadimgi bo'yoq sifatida Eron, Xindiston, Afg'onistonda xozirga qadar qo'llaniladi. Yuqorida keltirilganlar va o'simlik bo'yog'ining fotografiya svetofiltrlarni bo'yash to'la yaroqli ekanligi uni texnik o'simliklar qatoriga qo'shishga asos bo'lgan . So'ngi yillardagi izlanishlar Qozog'istonda o'suvchi *D. semibarbatum* o'z tarkibida *D-mannit* saqlashini ko'rsatdi. *D-mannitga* xos bo'lgan erkin radikallarni tutib qolish xamda neytrallash xususiyati terining erta qarish bilan bog'liq bo'lgan patologik jarayonlarni to'xtatishni taminlaydi. Boshqa tomondan o'simlik flavonoidlarining farmakologik xossalari xaqida biror bir ma'lumotlar keltirilmaydi. Yuqorida keltirilganlar xamda bu tur

isfarakning O'zbekistonda keng tarqalganligi o'simlikning neytral komponentlarini o'rganish muxim axamiyatga ega

**-Ishning maqsadi vazifalari :** *Delphinium semibarbatum Bienert* o'simligidan biologik faol moddalar (alkaloidlar, flavonoidlar, uglevodlar) ajratib olish va bu xom ashyodan dori vositalarini ishlab chiqarish.

**-Tadqiqot obyekti va predmeti :**

**Tadqiqot obyekti.** *Delphinium semibarbatum Bienert* .(sariq gulli isfarak) yer ustki qismi

**Predmeti.**

O'simlikning biologik faol moddalari (alkaloidlar, flavonoidlar, uglevodlari).

**-Tadqiqot uslubi va uslubiyati :** Dissertatsiya ishini bajarish jarayonida alkaloidlarning sifat va miqdor tarkibini tekshirishda e'tirof etilgan uslubiyat - o'simlik o'sish joyiga, vegetatiya davriga va o'simlik a'zolariga bog'liq xolda o'rganishga rioya qilindi. Fizik (spektrofotometrik) va kimyoviy (qattiq jism-suyuqlik,suyuqlik – suyuqlik tizimlaridagi ekstraksiya, cho'ktirish, tozalash, quritish ), taxliliy (yupqa qatlamlı xromatografiya) usular qo'llanilindi.

**-Tadqiqot natijalarining ilmiy jixatdan yangilik darajasi :** Tadqiqot natijalari alkoloidlar kimyosi va fitopreparatlar texnologiyasiga tegishli bilimlarni boyitadi.

**- Tadqiqot natijalarining amaliy axamiyati va tadbiqi :** O'zbekiston Respublikasiga import qilinadigan dori vositasi (*D-mannit*) maxalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligi ko'rsatib berildi.

**- Ish tuzilishi va tarkibi :**

Xom ashyoni tayyorlash

Ekstraksiya va quruq ekstrakt olish

Mannitni ajratib olish va tozalash

Flavonoidlar yig'indisini ajratib olish

Alkaloidlarni yig'indisini olish va *metillikakonitinni* ajratish

**-Bajarilgan ishning asosiy natijalari :** *D-mannit* va *metillikakonitin perxlorati* substansiyalari olindi.

**-Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi:** Jizzax viloyati Baxmal tumani xududida o'sadigan *Delphinium semibarbatum* o'simligi yer ustki qismidan bir vaqtning o'zida dorivor vosita *D-mannit* hamda bioreaktiv *metillikakonitin perxlorati* olish texnologik jixatdan sodda va mavjud uslublar qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ilmiy rahbar : \_\_\_\_\_

(imzo)

Magistratura talabasi : \_\_\_\_\_

(imzo)

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
MINISTRY OF HEALTH  
TASHKENT PHARMACEUTICAL INSTITUTE

## MASTER'S THESIS ANNOTATION

**The relevance of the subject:** The plant *Delphinium semibarbatum* (Isfarak, balloon shop, larkspur, flooded) in folk medicine used as a pain reliever, anthelmintic. Based on plant alkaloids delsemin delsemidin kurare effective drugs have been created. The petals of the flower plants quercetin izoramnetin, belonging to the group of flavonoids, remove the paint, which was the most popular in the dyeing of fabrics of wool and silk and is still using as the old paint Iran, India and Afghanistan. Based on the above, and considering the possibility of using dyes in dyeing plants plant filters can be added to the technical plant base. In recent years, studies have shown that growing in Kazakhstan *D. semibarbatum* incorporates *D. mannitol*. *D. Mannion* has a function to capture and neutralize free radicals, provides stop the pathological process associated with premature skin aging. On the other hand, does not provide information on the pharmacological properties of the flavonoids of the plant. The above as well as the prevalence of this species in the study and Uzbekistan neutral components is important plants.

**Purpose and functions:** Extract from the plant *Delphinium semibarbatum Bienert* biological active substances (alkaloids, flavonoids, carbohydrates) and the production of drugs from raw materials.

**The object and subject of study:**

**Object of study:** The upper part from the land *Delphinium semibarbatum Bienert* (Yellow floral Isfarak)

**Subject of research:** Biologically active substances of plants (alkaloids, flavonoids, carbohydrates).

**Methods and methodology of the study:** In the course of implementation of the thesis study of qualitative and quantitative composition of alkaloids in progress - on-site plants and growing plants during the growing season depending on the study members observed.

**The level of scientific and theoretical novelty of the research:** The research results will enrich the chemical and technological knowledge of medicinal plant alkaloids.

**The practical significance of the study and realization:** It was shown that production on the basis of local raw materials of drugs imported into the Republic of Uzbekistan (*D-Mannit*)

The structure and composition of the work:

Preparation of raw materials

Mining and extraction of dry extract

Extraction and purification of mannitol

Removing the sum of flavonoids

Preparation of total alkaloids and extraction *metillikakonitina*

**The main results of this work:** the substance were received *D-mannita* and *perxlorat metillikakonitina*.

**Conclusions and recommendations summarized in a brief statement:** The upper part of the plant delphinium semibarbatum growing on the territory of Bahamalskogo district of Jizzakh region, as well as the implementation of a simple application of the method, *D-Mannit* and bioreaktiv *metillikakonitin perxlorat*.

Scientific adviser: \_\_\_\_\_

(signature)

Graduate student: \_\_\_\_\_

(signature)

Республика Узбекистан

Министерство здравоохранения

Ташкентский Фармацевтический институт

Факультет: Промышленная фармация

Магистрант: Абулахадова Г.Ш.

Кафедра: Биотехнологии

Руководитель: Салимов Б.Т.

Учебный год: 2014-2016

Специализация: технология

иммунобиологических и  
микробиологических препаратов

## АННОТАЦИЯ ДИСЕРТАЦИИ МАГИСТРА

**Актуальность темы:** Растение *Delphinium semibarbatum Bienert* (Исфарак, шаршоп, шпорник, залил) в народной медицине использовался как обезболивающее, антигельминтное средство. На основе Алкалоидов растений *delsemin delsemidin* курапеподобный были созданы эффективные лекарства. Из лепестков цветка растения кверцитин изорамнетин, принадлежащий к группе флавоноидов, извлекалась краска, которая была самой популярной при окрашивании тканей из шерсти и шелка и до сих пор применяется как старинная краска Ирана, Индии и Афганистана. На основании вышеизложенных, и учитывая возможность использования краски растения в окрашивании светофильтров растение можно добавить в базу технических растений. В последние годы исследований показали, что

растущий в Казахстане *D. semibarbatum* имеет в своем составе D маннит. D Мэннион имеет функцию захватить и нейтрализовать свободные радикалы, обеспечивает остановку патологического процесса связанные с преждевременным старением кожи. С другой стороны, не предоставляется информация о фармакологических свойствах флавоноидов растения. Вышеуказанные а так же распространенность этого вида в Узбекистане и изучение нейтральных компонентов растения имеет важное значение.

**Цель и функции работы:** Извлечение из растения *Delphinium semibarbatum Bienert* биологические активные вещества (алкалоиды, флавоноиды, углеводы) и производство лекарственных средств из сырья.

**Объект и предмет исследования:**

**Объект исследования:** Верхняя часть от земли *Delphinium semibarbatum Bienert*. (Желтый цветочный Исфара)

**Предмет исследования:** Биологически активные вещества растения (алкалоиды, флавоноиды, углеводы).

**Методы и методология исследования:** В процессе выполнения диссертационной работы изучение качественного и количественного состава алкалоидов в процессе выполнения – на месте выращивания растений и растений в период вегетации в зависимости от членов исследования соблюдался.

**Уровень научно-теоретической новизны исследования:** Результаты исследований обогатят химические и технологические знания лекарственных растений алкалоидов.

**Практическая значимость и реализация исследования:** Была показана возможность производства на основе местного сырья лекарственных препаратов импортируемых в Республику Узбекистан (*D-Mannit*)

**Структура и состав работы:**

Подготовка сырья

Добыча экстракции и сухого экстракта

Извлечение и очистка маннита

Извлечение суммы флавоноидов

Получение суммы алкалоидов и извлечение метилликаконитин

**Основные результаты проведенной работы:** Были получены субстанции *D-Маннит* и биореактив *метилликаконитин перхлорат*.

**Выводы и рекомендации, суммированные в кратком заявлении:**

Верхняя часть растения *Delphinium semibarbatum* Bienert. растет на территории Бахамальского района Джизакской области, а так же осуществление простого метода применения, *D-Маннит* и биореактив метилликаконитин перхлорат.

Научный руководитель: \_\_\_\_\_

(подпись)

Студент магистратуры: \_\_\_\_\_

(подпись)

# **MUNDARIJA**

## **KIRISH.**

### **I bob.Adabiyotlar sharhi.**

|   |    |
|---|----|
| 1.Fito preparatlar olinishi texnologiyasining asosiy bosqichlari.....   | 17 |
| 2.Diterpen alkaloidlari asosida yaratilgan dorivor preparatlar.....   | 22 |
| 3. <i>Delphinium</i> turkum o'simliklari alkaloidlari asosida yaratilgan dorivor preparatlar.....                             | 23 |
| 4. <i>Aconitum</i> turkum o'simliklari alkaloidlari asosida yaratilgan dorivor preparatlar.....                               | 26 |
| 5. <i>Delphinium semibarbatum</i> o'simligi biofaol moddalari (alkaloidlari, uglevodlari, flavonoidlari) haqida ma'lumot..... | 31 |

### **II bob.Materiallar va tadqiqot usullari.**

|                                 |    |
|---------------------------------|----|
| 1.Qo'llanilgan materiallar..... | 35 |
| 2.Tadqiqot usullari.....        | 35 |

### **III bob. Olingan natijalar taxlili.....**

**37**

### **IV bob.Tajriba qismi**

|  |    |
|--|----|
| 1.Xom ashyoni tayyorlash.....              | 47 |
| 2.Ekstraksiya va quruq ekstrakt olish..... | 47 |
| 3.Mannitni ajratib olish va tozalash.....  | 48 |

|  |           |
|--|-----------|
| 4.Flavonoidlar yig'indisini ajratib olish ularning sifat tarkibi va miqdorini aniqlash ..... | 50        |
| 5.Alkaloidlarni yig'indisini olish va metillikakonitinni ajratish.....                       | 53        |
| <b>Xulosa.....</b>   | <b>57</b> |
| <b>Ilova .....</b>   | <b>58</b> |
| <b>Adabiyotlar ro'yhati.....</b>   | <b>64</b> |

## Kirish

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbliji.** O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiylari va 2012 yilda O’zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar maxkamasidagi “**Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi**” mavzusidagi nutqida mamlakatimizda axolini ish bilan ta’minlash, moddiy texnika bazasini yaratish,tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ular asosida raqobatdosh mahsulotlar yaratish, innovatsion texnologiya ishlanmalarni sanoat ishlab chiqarishlarida qo’llash xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari ko’rib chiqildi .Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so’ng mamlakatimiz iqtisodiyoti va ijtimoiy xayotda qator ishlar olib borilmoqda.Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada yuksaltirishning yangi bosqichga ko’tarishning samarali yo’llaridan biri vatanimiz hududagi tabiiy xom ashyo bazasidan foydalanib dori vositasini yaratishdir.

Shunga ko’ra mamlakatimizda o’sayotgan *Delphinium semibarbatum* *Bienert* dorivor o’simlik xom ashvosidan unumli foydalanish chora tadbirlarini ko’rish xam dolzarb masala xisoblanadi.Qayta ishlash korxonalarni barpo qilish, dorivor o’simliklarni biologik faol moddalarini asosida yuqori samarador dori shakllarini ishlab chiqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan fundamental tadqiqotlar O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yangi bosqichga ko’tarishni samarali yo’llaridan biridir.

Butun jaxon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra tibbiyot amaliyotida qo'llanilayotgan dori vositalarining 40% dan ko'prog'i o'simlik xom ashysidan ajratib olinadigan biologik faol moddalar –alkaloidlar, flavonoidlar, glikozidlar, uglevodlar va boshqalar asosida ishlab chiqariladi.Ma'lumki o'simlik xom ashysidan olinadigan dori vositalarining olinish texnologiyasiga asosiy ta'sir qiluvchi tabiiy birikmalarning fizik – kimyoviy xususiyatlariiga monand xolda yaratiladi va o'simlik xom ashysi o'zida kerakli maxsulot bilan bir qatorda boshqa biologik faol birikmalarni yetarli miqdorda saqlashini e'tiborga olinsa, bunday o'simlikni qayta ishlash uchun bir necha qolgan ta'sir etuvchi xossalariiga xam mos keladigan texnologiya yaratish zarurati yuzaga keladi. Bu jixatdan olganda *Delphinium semibarbatum* *Bienert* .(sariq gulli isfarak o'simligi)ning yer ustki qismi bir vaqtning o'zida alkaloidi mellektin ,rutin va D – mannit saqlashi bilan muxim axamiyat kasb etadi.Mellektin xamda D-mannit dori vositalarining mamlakatimizga chetdan import qilinishini e'tiborga olib, *Delphinium semibarbatum* biologik faol birikmalarni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqishni mamlakatimiz farmasevtika soxasini rivojlantirish yo'lidagi dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. *Delphinium semibarbatum* *Bienert* .(sariq gulli isfarak o'simligi)ning yer ustki qismi bir vaqtning o'zida ham alkaloid (metillikakonitin), ham flavonoid (rutin) hamda uglevod (D – mannit) saqlashi bilan diqqatga sazovordir.

*Delphinium semibarbatum* *Bienert* o'simligi qimmatli bo'yoq olish mumkin bo'lgan texnik o'simliklar qatoriga kiritilgan bo'lishiga qaramay bo'yoq moddalar asosini tashkil etuvchi flavonoidlarning tuzilishi bilan bir qatorda ularni ajratib olish texnologiyasi ishlab chiqilmaganligi bu borada bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni asosiy vazifalar qatoriga qo'yadi.Shu bilan bir vaqtda o'simlikning ko'rsatilgan a'zosi sezilarli miqdorda D-mannit hamda metillikakonitin saqlashi xom ashyonи qayta ishlashni o'ziga xos yo'l bilan

amalga oshirishni talab etadi.Yuqoridagilarni xisobga olganda dissertatsiya uchun to'g'ri va dolzarb mavzu tanlangan.

**Tadqiqotning obyekti.** *Delphinium semibarbatum* Bienert .(sariq gulli isfarak) yer ustki qismi.

### **Predmeti.**

O'simlikning biologik faol moddalari (alkaloidlar, flavonoidlar, uglevodlari).

**Tadqiqot maqsadi.** *Delphinium semibarbatum* Bienert o'simligidan biologik faol moddalari (alkaloidlar, flavonoidlar, uglevodlar) ajratib olishning qisqa(qulay) usulini izlab topishdan iborat.

### **Tadqiqot vazifalari:**

**1.** Xom ashyni tayyorlash

**2.**Ekstraksiya va quruq ekstrakt olish

**3.**Mannitni ajratib olish va tozalash

**4.**Flavonoidlar yig'indisini ajratib olish

**5.**Alkaloidlarni yig'indisini olish va metillikakonitinni ajratish

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Jizzax viloyati Baxmal tumani xududida o'sadigan *Delphinium semibarbatum* o'simligi yer ustki qismidan bir vaqtning o'zida diuretik xossaga ega D-mannit hamda bioreaktiv metillikakonitin perxlorati olish texnologik jixatdan sodda va mavjud uslublar qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasiga import qilinadigan diuretik D-mannit ishlab chiqarish uchun tekshirilayotgan o'simlikning yer ustki qismi xom ashyo vazifasini o'tashi mumkinligi birinchi bor ko'rsatib berildi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** *Delphinium semibarbatum* Bienert o'simligidan biologik faol moddalari (alkaloidlar, flavonoidlar, uglevodlari) ajratib olishning qisqa(qulay) usulini ishlab chiqish masalasi yuzaga chiqdi .Bu maqsadga erishish uchun avval adabiyotlar bilan yaqindan

tannishib chiqildi. Adabiyotlarda keltirilishicha *Delphinium semibarbatum Bienert* o'simligidan alkaloidlar ajratib olingan uglevodlari ajratib olinmagan, flavonoidlari borligi aytib o'tilgan ,lekin ajratib olinmagan .

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharxi.** *Delphinium semibarbatum Bienert* o'simligidan biologik faol moddalar (alkaloidlar, flavonoidlar, uglevodlar) dan alkaloidlari nisbatan to'liq, flavonoidlari yuzaroq tekshirilgan, uglevodlari esa umuman o'rganilmaganligi tufayli ularni ajratib olish texnologiyasiga oid birorta aniq ma'lumotlar keltirilmagan. Bu ma'lumotlar Yunusov S.Yu.,Abubakirov N.Q. maqolalarida keltirib o'tilgan

**Tadqiqotning metodlari.** Dissertatsiya ishini bajarish jarayonida alkaloidlarning sifat va miqdor tarkibini tekshirishda e'tirof etilgan metodologiya - o'simlik o'sish joyiga, vegetatiya davriga va o'simlik a'zolariga bog'liq xolda o'rganishga rioya qilinadi. Fizik (spektrofotometrik) va kimyoviy (qattiq jism- suyuqlik,suyuqlik – suyuqlik tizimlaridagi ekstraksiya ,cho'ktirish, tozalash, quritish ), taxliliy (yupqa qatlamlı xromatografiya) usular qo'llanilinadi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari alkoloidlar kimyosi va fitopreparatlar texnologiyasiga tegishli bilimlarni boyitadi. *Delphinium semibarbatum* o'simligi yer ustki qismidan biofaol moddalarni ajratib olishning tehnologik sxemasi o'simlik xom ashyosidan yetarli miqdorda D-mannit, bioreaktiv metillikakonitin perxlorati hamda flavonoidlar aralashmasi olish imkonini beradi.

**Dissertatsiya ishi** kirish, adabiyotlar sharhi, asosiy qism (olingan natijalar taxlili,tajriba qismi ), xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I bob.Adabiyotlar sharhi**

### **1.Fito preparatlar olinishi texnologiyasining asosiy bosqichlari .**

Zamonaviy fitokimyoviy preparatlar ishlab chiqarishda bir qator texnologik jarayonlar mavjuddir. Bu jarayonlar xom ashyoni ekstraktsiyaga tayyorlash, xom ashyo va tayyor maxsulotni maydalash, suyuq ekstraktdan maxsulotni ajratish, dorivor moddalarni tozalashdir. Odatda o'simlik xom ashvosini ektraktsiyaga tayyorlash uchun birinchi navbatda ko'pincha maydalash jarayoni amalga oshiriladi. Ekstraktsiyalashda maydalashning eng qulay fraktsiyasi bu xom ashyoni 3-6 mm gacha kattalikda maydalashdir. Qattiq jismlarning tashqi kuch ta'sirida bo'lakchalarga yoki zarrachalarga bo'linishiga maydalash jaryoni deb ataladi. Buning uchun xar xil tuzilishga ega bo'lgan va ishlash usuli bilan bir-biridan farqlanadigan maydalagich-tegirmonlardan foydalaniladi.

Fito preparatlar olinishi texnologiyasining asosiy bosqichlari to'rt qismdan iborat:

**1.Ekstaksiyalash.** Biofaol moddalar tabiatiga bog'liq xolda ekstraksiya uchun ekstragent tanlanadi.Alkaloid saqlovchi o'simlik xom ashysi ekstraksiyasi

ikki xil yo’lda amalga oshiriladi:a) alkaloidlarni asos xolda ajratib olish; b) alkaloidlarni ularning tuzi xolatida ajratib olish.Birinchi yo’l bilan alkaloidlar ajratib olishda o’simlik xom ashyosi ishqorlanadi.Ishqorlovchi vosita sifatida NH<sub>4</sub>OH, NaOH, NaHCO<sub>3</sub>, Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>ishlatilishi mumkin.Bunda ishqorlovchi vosita eritmasi yordamida o’simlik xom ashyosi namlanadi, so’ngra ma’lum muddatdan keyin benzol, dietil efir, xloroform kabi organik erituvchilar yordamida alkaloidlar ajratib olinadi va tozalanadi. Alkaloidlar yig’indisi ularning mineral kislotalar bilan hosil qiladigan tuzlari orqali tozalanadi. Alkaloidlarni ikkinchi yo’l bilan ajratib olishda o’simlik xom ashyosi metanol, etanol, suvli etanol kabi polyar (qutbli) erituvchilar yordamida matseratsiya qilinadi yoki perkolatsiyalanadi.Ekstrakt quyultirilgach ishqorlanadi, alkaloidlar benzol, dietil efir, xloroform kabi organik erituvchilar yordamida ajratib olinadi. Ularni tozalash birinchi yo’ldagi kabi davom ettiriladi. Ko’rsatib o’tilgan yo’llarni qo’llash haqidagi ma’lumotlar ko’plab adabiyotlarda keltiriladi.

**2.Ta’sir etuvchi moddani ajratib olish** Sanoat miqyosida alkaloidlar yig’indisini bo’lib, undan individual alkaloidlarni ajratish uchun adsorbsion xususiyatga ega bo’lgan sorbtsion usuldan foydalaniladi.

Adsorbent sifatida odatda alyuminiy oksid, silikagel va boshqalardan foydalaniladi. Elyuent sifatida esa – petroley efir, benzol, spirt, xloroform, geksan, etanol va boshqalardan foydalaniladi.

So’nggi vaqtarda tajribada keng miqyosida alkaloidlar ishlab chiqarishda ion almashinish usulidan foydalaniladi. Alkaloidlar ajratib olish tajribasida kationitlar yordamida KU – 1, KU – 2, KU – 5, SDV – 3t , STS – 3, KRU individual alkaloidlarni ajratib olishni funktsiyalovchi sxema yaratiladi.

Sxema bosqichlardan iborat:

- o’simlik xom ashyosidan alkaloidlarni suvli ekstraktsiyasi;
- kationitda alkaloidlar yig’indisini so’rilishi;

-alkaloidlarni kationitdan tozalangan yig'indi holatida suv spirtli aralashmalarda ammiak eritmasi bilan (etil, metil, izopropil spirt, aralashmalar) desorbtisiysi;

- alkaloidlarni spirt – ammiakli elyuatdan oddiy kimyoviy usullarni qo'llagan holda ajratib olish kationitni regeneratsiyalash.

Sanoat miqyosida ko'knori ko'sagidan morfin, qoldiq eritmadan morfin, afsonak yer ustki qismidan sitizin, bangidevona urug'idan skopolamin va boshqalar ajratib olinadi.

Bizga ma'lum bo'lganidek, juda kam xolarda o'simlik bir turdag'i alkaloid saqlaydi. Yuqorida biz ajratish va tozalash usullarini berib o'tdik. Quyida biz individual alkaloidlarni ajratishda yana bir necha usullarni bermoqdamiz. Juda ko'p xollarda ekstraktsiya davomida murakkab asoslar aralashmasini olamiz. Shu sababdan oldimizda individual alkaloidlar ajratish masalasi kelib chiqadi. Bu ishni amalga oshirish uchun umumiyligi yo'llanma berish qiyin. Lekin bir nechta umumiyligi ko'rsatma bera olish mumkin.

**a) Qaynash xaroratiga asoslanib alkaloidlarni ajratish.** Ayrim xollarda aralashmadagi alkaloidlar qaynash xaroratiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi, shu sababdan kasrli xaydash yo'li bilan ularni ajratish mumkin. Masalan, *Conium maculatum*. L. tarkibidagi koniin va kongidrin qaynash xaroratlari bilan bir biridan farq qiladi va bunda qo'pol birlamchi fraktsiyalashni ko'rish mumkin. Yanada to'liq ajratishni asosli aralashmani mos erituvchi bilan qayta ishlashda olish mumkin, bundan asosiy maqsad bizga kerakli modda erituvchida erib, qolgan qismi erimaydi yoki aksi, asosli qism erituvchida erimasdan qolgan qism yaxshi eriydi.

Erituvchi sifatida ko'p xollarda suv, spirt (etil, metil), efir, atseton, xloroform, benzol va uning gomologlari, petroleyn efiri va ularning aralashmalari ishlatiladi. Ko'pincha eruvchanlikdagi farq uncha katta bo'lmaydi, bu xolda eruvchanlik aralashmasi qisman ajratadi. Bunda erituvchi qayta ishlatiladi, bu esa o'z yo'lida qiyinchiliklar tug'diradi. Erituvchilar bilan ajratish

sovuvda yoki qizdirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Erigan modda (yoki moddalar aralashmasi) kristallanadi. Bu kristallarni qayta kristallab ularni tozalash mumkin. Alkaloidlar yuqori temperaturaga chidamsiz va bu temperaturada oson parchalanuvchan bo'lganligi uchun bu xaydash odatda past bosimda olib boriladi. Alkaloidning to'liq tozalanishi uchun bitta kasrli xaydash maqsadga muvoffiq emas, bunday xollarda boshqa tozalash usullari xam qo'llaniladi.

**b) Xar xil erituvchanlikka asoslangan usullar.** Alkaloidlar va ular tuzlarining xar xil erituvchilarda erituvchanlik farqlari ularni ajratish va tozalashda qo'llaniladigan asosiy usul bo'lib xisoblanadi. Ekstraktsiya davomida olingan birlamchi kislotali eritma tarkibidagi "alkoloidlar yig'indisi" ni ajratishda aralashmaydigan organik erituvchilarni qo'shish yordamida qisman qatlam ajralmasini kuzatish mumkin. Bu ajratish albatta to'liq bo'lmaydi quyultiriladi (erituvchini xaydash yoki oddiy temperaturada bug'latish yo'li bilan), bunda moddalarni yangi qismi ajraladi. Bunday kasrli kristallah maqsadga olib keladi. Eruvchanlik farqi juda kichik bo'lganda bu jarayon xar bir fraktsiya bilan bir necha marta takrorlanadi.

Bunda bir narsaga axamiyat berish kerak, bu xam bo'lsa alkaloidlar aralashmasining erituvchanligi aloxida komponentlar eruvchanligi o'rtachasiga teng bo'lmasdan, uning oshish tomoniga tezlikda o'zgaradi. Masalan, suvda umuman erimaydigan va organik erituvchilardan oson eriydigan morfin, boshqa alkaloidlar ta'sirida, ayniqsa oqsillar, mumlar va boshqa moddalar, suvli eritmaga oson o'tadi. Qandaydir alkaloid ajratilganda uning eruvchanligi kamayadi, kristallanish xususiyati ortadi. Qiyin yoki umuman kristallanmaydigan ko'pchilik asoslar (aralashma tarkibida joylashgan) birlamchi tozalangandan keyin oson kristallanadigan bo'lib qoladi.

Organik erituvchilarda kristall xolda yomon eriydigan ko'pchilik alkaloidlar, maydalangan, amorf xolda bu erituvchiga oson o'tadi.

**v) Xar xil “asoslilik kuchiga” asoslangan ajratish usuli.** Xar xil alkaloidlar xar xil asosliylik kuchiga ega, bu usul shunga asoslangan. Agarda bunday alkaloidlar aralashmasiga neytrallash uchun kamlik qiladigan kislota qo'shsak, birinchi xolda kuchli asoslar kislota bilan bog'lanadi, kuchsiz asoslar esa erkin xolda keladi va aksi kislota bilan bog'langan alkaloidlar aralashmasiga oz miqdorda ishqor qo'shilsa, birinchi bo'lib kuchsiz asoslar tuzi parchalanadi, kuchli asoslar kislota bilan birikkan xolda qolaveradi.

Fraktsiyalash usuli qiyin sharoitda alkaloidlar aralashmasini ajratishni samarali usuli xisoblanib kerakli maqsadga olib keladi.

Kamchiligi – nisbatan qiyin va katta xajmligidadir, lekin bu kamchiliklar berayotgan samara bilan qoplanib ketadi.

**g) Xar xil adsorbsiyalanish qobiliyatiga qarab ajratish.** Alkaloidlar aralashmasini ajratish uchun oxirgi yillarda xromatografiyadan keng qo'llaniladi.

Bu usulning moxiyati adsorbent bilan to'ldiriladigan kolonka orqali tekshirilayotgan eritma o'tkaziladi. Eritma to'liq adsorbent qavatidan o'tgandan keyin kolonka organik erituvchi bilan yuviladi va kalonkadagi birinchi chiqayotgan aloxida fraktsiyalar yig'ib olinadi. Aloxida fraktsiyalar keyingi qayta ishslash individual birikmalar olishga imkoniyat beradi.

**3.Mahsulotni tozalash.** Tozalashni yana bir yaxshi usuli asosli aralashmani qandaydir tuzga o'tkazishdir. Bundan maqsad tuzlar erkin asoslarga nisbatan oson kristallanadi. Shunday xolatlar xam bo'lganki erkin asos kristali umuman olinmagan, lekin tuzi oson kristallanadi. Mineral kislotalardan bu maqsadda odatda xlorid, bromid, yodid va xlorli kislotalar ishlatiladi sulfat, nitrat, fosfat kislotalar kam ishlatiladi. Sanoatda qo'sh tuzlar xam qo'llaniladi. Organik kislotalardan shavel, uzum, pikrin kislotalar ishlatiladi. Alkaloid tuzlari odatda suvda, spirtda, atsetonda va shunga o'xshash erituvchilarda eriydi. Ko'pincha

xloridlar xloroformda erishi qobiliyati va suvli eritmadan bu erituvchiga o'tish qobiliyati katta axamiyatga ega.

**4.Qadoqlash.** 1. Aymalin- uchlamchi indalli alkaloid, rauvolfiyaning bir necha turlarida uchraydi, asosan, ildizidan olinadi, oq yoki sarg'imir kristall kukun. Aritmiyaga qarshi qo'llaniladi. Tabletka ko'rinishida 20 ta qadoqda chiqariladi 0,05 g. B ro'yxtiga kiradi. "Zdorove": Ukrainianada ishlab chiqariladi".

2. Vinkristin- sitotoksik ta'siriga ega. Kukun xolatida 0,001g dan, in'ektsion eritma ampulada chiqariladi. In'ektsiya uchun 1 ml li eritma xolida ampulada chiqariladi. A ro'yxtiga kiradi. Fransiya, AQSh da ishlab chiqariladi.

**Flavonoidlar texnologiyasi .** Asosan sanoatda flavonollar, flavonlar va xalkonlardan foydalaniлади. Flavonoidlar asosan quruq o'simlik maxsulotidan etil spirti, spirt suvli eritma, etilatsetat orqali ajratib olinadi. Ajratuvchini tanlash esa gidroksil guruxlarining soniga va flavonoid molekulasida uglevod qoldiqlari xisobiga amalga oshiriladi.


Ekstraktsiyalashni esa reperkolyatsiya, qarama-qarshi oqimli kasrli matseratsiya, qarama-qarshi oqimli perkolyatorlar batareyalarida olib boriladi. Flavonoidlarni birlamchi ajratmasi esa "Simax" ko'rinishidagi bug'latish moslamasida kontsentrlanadi. O'simlik tarkibidagi ballast moddalar, ya'ni xlorofil, mum, yog'lar, terpenlarni tozalash uchun petroleyn efiri, xloroform, geksan, metilen xlorit kabi erituvchilardan keng foydalaniлади.

**Flavonoidlarni ajratish va tozalash.** Flavonoidlarni bo'lish va tozalashda adsorbsion-xromatografik usuldan foydalaniлади. Sorbent sifatida ko'pincha alyuminiy oksid, silikagel, sellyuloza, karboksimetiltselluloza va poliamiddan foydalaniлади. Avvaldan borat kislota, ammiak yoki fosfat bufer bilan ishlov berilgan silikagelli kolonkani sirka kislota bilan suyultirilgan butanol aralashmasi bilan elyuirlanadi. Ba'zi vaqtarda benzol yoki xloroform yoxud atseton benzol bilan (1:3) qog'ozli xromatogrammada ishlatiladigan sellyuloza kukuni joylashtirilgan kolonkalarda barcha ochiltiruvchilardan foydalaniлади.


Ko'pchilik flavanoidlar uchun yaxshi bo'lувчи xossaga ega bo'lган aralashma butanol-sirka kislota-suv (4:1:2, 4:1:5) xisoblanadi. [6]

## 2.Diterpen alkaloidlari asosida yaratilgan dorivor preparatlari


Adabiyotlarda ma'lum bo'lган DA.ning asosiy qismi *Aconitum*, *Delphinium* (Ranunculaceae oilasi) tarkum o'simliklaridan ajratib olingan. Kimyogar va farmakologlarning izlanishlari natijada o'simlik alkaloidlari asosida metillikakonitin (1) (*Delphinium dictyocarpum* DC.), kondelfin (2) (*D.confusum* M.Pop.) va elatin (3) (*D.elatum* L.) [1-3] asosida samarali kuraresimon dori vositalarining tibbiyot amaliyotiga tatbiq etilishi bilan diterpen alkaloidlari asosida dorivor preparatlari yaratishdek yangi yo'nalishga asos solindi.



Metillikakonitin (1)




Kondelfin (2)





Elatin (3)

Akademik S.Yu.Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi instituti olimlari izlanishlari natijasida *Delphinium* o'simliklaridan ajratilgan delkorin (4) [33-37], metillikakonitin perxlorati (5) [1]33-38] ,eldelin (6) [33-39] ,kondelfin (7) [33] alkaloidlar tibbiy biologik izlanishlarning kimyoviy qo'llanmasi sifatida (bioreaktiv) ishlatilib kelinmoqda. [33]



Delkorin (4)



Eldelin (6)

Metillikakonitin perxlorat (5)

### **3. *Delphinium* turkum o'simliklari alkaloidlari asosida yaratilgan dorivor preparatlar va bioreaktivlar.**


*Delphinium* turkum o'simliklari ko'p tarqalgan o'simliklar qatoriga kiradi.Ulardan *Delphinium dictyocarpum* DC. (to'rsimon isfarak), *D.confusum* M.Pop. (chalkashtirilgan isfarak) va *D.elatum* L. (baland bo'yli isfarak) o'simliklari yer ustki qismlarining asosiy alkaloidlari asosida mellektin (metillikakonitin gidroyodidi), kondelfin va elatin kuraresimon preparatlari yaratilib tibbiyotga tadbiq qilingan. Ayni vaqtda bu bilan deterpen alkaloidlari asosida dorivor preparatlar yaratish yo'nalishiga asos solindi.(1-rasm *Delphinium semibarbatum* o'simligi)



### **Rasm-1. *Delphinium semibarbatum* o'simligi**

Isfarak preparatlari o'z faolligi jixatidan mashxur d-tubokurarin xloriddan yuqori turmasa ham, biroq ular kam zaxarliligi va og'iz orqali qabul qilinganda samaradorligi bilan bir muncha ustun turadi. Shu tufayli metillikakonitin va kondelfin markaziy nerv tizimi kasallanishi yoki jaroxatlanishi oqibati bo'lmish suyak mushaklari tonusi oshishida, xarakat funksiyasining buzilishida (parkinsonizm,kengaygan eslamaslik va shollikda ) tibbiyotda keng qo'llangan.

**Melliktin**



### Melliktin (7)

Melliktin deb to'r-mevali suyak o'simliklar va boshqa ayiqtovon oilasida tarkibida metillikakonitin alkaloidining gidroyodidi nomlanadi.

Oq yoki yengil sarg'ish yoki pushti soyali oq rangli mayda kristalli kukun. Suvda va spirtda kam eruvchan. Yorug'likda sarg'ayadi.

Kimyoviy tuzilish jihatidan akonid alkaloidlariga ta'luguqli.


Nerv-mushak o'tkazuvchanlikga ta'siri mexanizmi d-tubokuraringa yaqin.

D-tubokurarin, diplasin va boshqa o'xshash preparatlardan farqli o'laroq melliktin molekulasida azot atomlarining to'rtligini (oliy bazasi) mavjud emas, u oshqozonga tushganda shimalib ketadi va shu qabul qilish usulida parenteral qo'llanilishi kabi nerv-mushak o'tkazuvchanlikga to'sqinlik qilish ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek preparat o'rtacha gangliobloklovchi ta'sir ko'rsatadi.

Piramida qon tomir tanqisligi va shishishi turidagi postensefalitik parkinsionizm va Parkinson kasalligi, Littl kasalligi, araxnoensefalit va orqa miya araxnoidit va boshqa mushak tonusining oshishi va motor funktsiyasi buzilishi bilan birga piramida va ekstrapiramida turdag'i kasalliklarda mushak tonusini pasaytirish uchun qo'llaniladi.[7]

## **4. *Aconitum turkum* o'simliklari alkaloidlari asosida yaratilgan dorivor preparatlar va bioreaktivlar.**

*Alapinin substansiyasining asosiy alkaloidi -lappakonitin hidrobromidning tuzilish fo'rmulasi.*



**Lappakonitin bromgidrat (9)**

Lyutikovlar oilasiga mansub bo'lgan parpi va shimol parpisi o'simliklari yer ustki qismi,ildizlari hamda ildiz poyalaridan allapinin substansiyasini ishlab chiqarishni yangi texnologiyasiga asosan quritilgan xom ashyo - parpi o'simligi yer ustki qismi tegirmonda maydalanadi,80 %li etil spirt bilan ekstraksiya qilinadi,quyultiriladi, ekstraktning suvli qoldig'i olinadi. Suvli qoldiq yuzasiga chiqib qolgan lipid,oqsillar va boshqa moddalar kompleksi filrlash yoki dekantatsiya yo'li orqali ajratib olinadi va natriy karbanat eritmasi yordamida muxiti pH 10-11 gacha ishqorlanib, alkaloidlarni xloroform yordamida ekstraksiya qilinadi. Olingan xloroformli ekstrakt reaktorga solinadi va alkaloidlar 5% li sulfat kislotasi eritmasi bilan ajratib olinadi. Alkaloid bo'limgan qo'shimcha moddalardan tozalash uchun kislotali eritma 2 marta xloroform bilan yuvib tashlanadi. Kislotali eritmaga xloroform slogan xolda natriy karbanat eritmasi yordamida muxiti pH 10-11 gacha ishqorlanadi va alkaloidlarni xloroform bilan ajratib olinadi. Xloroformli eritmani quyultirish,

so'ngra quritish natijasida xom ashyning quruq massasiga nisbatan 0.8- 1.0 % gacha alkaloidlar yig'idisi olinadi.

Qurutilgan alkaloidlar yig'indisi etil spirt bilan ishlov beriladi, qo'shimcha alkaloidlar bilan birga cho'kmaga tushgan lappokonitin ajratib olinadi,spirt bilan yuviladi va quritilgach, qo'shimcha alkaloidlar bilan birga texnik lappokonitin olinadi .

Qo'shimcha alkaloidlari bo'lган lappokonitining bromgidratli tuzini (allapinin substansiyasi) spirtli muxitda eritmaga bromid kislotasining spirtdagi 5 % li eritmasi muxiti pH 1 gacha qo'shib olinadi. Xosil bo'lган texnik maxsulot filtrlab olinadi, metil spirit yordamida qayta kristallanadi. Allapinin substansiyasi o'simlikda saqlanishiga nisbatan 72% miqdorda olinadi.

Ushbu yangi xom ashylardan allapinin dori vositasini ishlab chiqarish usuli O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi patentlari bilan ximoya qilingan.O'simlik moddalari kimyosi instituti tajriba ishlab chiqarish korxonasi hozirgi vaqtida parpi va shimol parpisi o'simliklari yer ustki qismi,ildizlarihamda ildiz poyalaridan o'simlikda saqlanishiga nisbatan 70-75% li unum bilan seriyali ravishda allapinin substansiyasi ishlab chiqarilmoqda. 2013-2014 yillarda allapinin substansiyasi ishlab chiqarish xajmi 1000 kg dan ortiqni tashkil etdi .

Xozirgi kunga kelib ilmiy izlanishlar natijasida o'simlik xom ashynosidan allapinin substansiyasini iqtisodiy samarador ekologik xafsiz ishlab chiqarish texnologiyasi yaratildi.Ushbu takomillashgan usul bo'yicha 1 kg allapinin substansiyasini ishlab chiqarishda etil spirtining sarf bo'lishi bor yo'g'i 2-4% ga oshadi natriy karbonatning sarfi 3 martadan ko'proq kamayadi,texnologik jarayonlarda sulfat kislotasi,metil spirit, xloroform va natriy sulfat tuzini ishlatish umuman olib tashlangan. Allapinin substansiyasi o'simlikda saqlanishiga nisbatan 70-75% miqdorda olinadi.

Yangi texnologiya bo'yicha olingan allapinin dori vositasi substansiyasining fizik kimyoviy xususiyatlari farmakologik faolligi

o'rganilganda, avvalgi texnologiya yordamida olingan dori vositasidan mutlaqo farq qilmasligi aniqlangan.

Allapinin 0,025 g №30 tabletka va 0,5%li eritma, 2 ml li ampula xolatda ishlab chiqarilmoxda.


Parpi o'simligi yer ustki qismi 10 dan ortiq lappokonitin, leykonin, sepokonitin, atsetilsepokonitin, N-dezatsetillappokonitin aksin, aksinatin, leykonidin, va boshqa alkoloidlar yig'indisini saqlaydi. Aklezin yuqori antiaritmik xususiyatga ega bo'lgan dori vositasi sifatida amaliyotda qo'llashga ruxsat etilgan .

Aklezin substansiyasini ishlab chiqarish texnologiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti tajriba ishlab chiqarish korxonasi bazasida yaratilgan alkoloidlarni suv spirt eritmasi yordamida ekstraksiya qilib olish qurilmasida qayta ishlab chiqilgan. Aklezinning tajriba sanoat bishlab chiqarish reglamenti, substansiya va tayyor dori shakliga ( qobiqlangan tabletkalar 0,025 g №10) vaqtinchalik farmakopiya maqolalari ishlab chiqilgan. . [13]

Shimol parpsi o'simligi ildizi va ildizpoyalaridan aksaritmin substansiyasini ishlab chiqarish texnologiyasi xam parpi o'simligi ildizi va ildizpoyalaridan aksaritmin substansiyasini ishlab chiqarish texnologik sxemasidan foydalanib olinadi. Aksaritmin o'simlik xom ashyosida saqlanishiga nisbatan 82-85 % miqdorda ajratilingan .

Dori vositasining texnologiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti tajriba ishlab chiqarish korxonasi bazasida yaratilgan alkoloidlarni suv spirt eritmasi yordamida ekstraksiya qilish usuli pilot qurilmasida qayta ishlab chiqilgan. Tayyor dori shakliga ( qobiqlangan tabletkalar 0,025 g №30) vaqtinchalik farmakopiya maqolalari ishlab chiqilgan . Dori vositasi ishlab chiqarish usuli O'zbekiston Respublikasi patenti bilan ximoya qilingan . [13]

*N-dezatsetillappokonitin gidrobromidning tuzilish fo'rmulasi.*



**N -Des - atcetillappakonitin  
bromgidrat (10)**

Allapinin dori vositasini ishlab chiqarish jarayonida chiqindi sifatida tarkibida katta miqdorda N-dezatsetillappokonitin gidrobromidni saqlovchi diterpen alkoloidlar aralashmasi xosil bo'ladi.Undan nativ xolatdagi N-dezatsetillappokonitin gidrobromid antiaritmin dori vositasini original ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan.


Quritilgan chiqindi 1:3 nisbatda distillangan suvda eritiladi va eritmaning muxiti pH -6,5 keltirildi.Muxiti 6,5 bo'lgan suvli eritmada alkaloидлар 3 marotaba xloroform bilan ekstraksiya qilinadi.Xloroformli ajratma filtrlanadi,quyultiriladi so'ngra quritiladi, atseton bilan ishlov beriladi va antiaritmin dori vositasi olinadi.

Dori vositasining unumi xavoda quritilgan chiqindining massasiga nisbatan 50% ni tashkil etgan .


N-dezatsetillappokonitin gidrobromid antiaritmin dori vositasini ampulada 0,5% li inekzion eritma sifatida qo'llash taklif etilgan. . [13]

Aconitum turkum o'simliklaridan ajratib olingan akonitin (11) [33-40],benzoilgeteratizin (12) [33],N -dezatsetillappakonitin (13), [33-13] geterotizin(14), getizin(15), lapakonitin (16), delsolin (17), tadjakonin (18)


alkaloidlari asosida yaratilgan bioreaktivlar xujayra natriy kanallarining blokatirlari sifatida tibbiy biologik izlanishlarning kimyoviy qo'llanmasi sifatida (bioreaktiv) ishlatalib kelinmoqda. [33]




Akonitin (11)




Benzoilgeteratizin hidroxlorid (12) · HCl




N-Desacetillappakonitin (13)




Geteratizin (14)



Getisin (15)



Tadjakonin (18)




**Lappakonitin (16)**

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar alkaloidlarni ajratib olishda ularni tuz xolatida ekstraksiyalash asosiy o'ringa chiqib borayotganligini ko'rsatadi. Bu o'rinda suvli spirt yordamida ekstraksiyalash yahshi natijalar olish imkonini berishi takidlanadi.

## **5.Delphinium semibarbatum o'simligi biofaol moddalari (alkaloidlari, uglevodlari, flavonoidlari) haqida ma'lumot**

